


NAMANGAN VILOYATINIG TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)

2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 315,7 mln.AQSh dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 28,6 foizga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 102,4 mln.AQSh dollarga (60,0 % ga ko`paydi) va import hajmi 213,3 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 17,5 % ga oshdi) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus -110,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
(mln.AQSh dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**


(ming. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Xitoy	83351,8	13064,8	70287,1	26,4	164,4
Rossiya	63959,9	39329,8	24630,0	20,3	109,5
Turkiya	34507,9	6554,6	27953,3	10,9	136,8
Qozog`iston	29145,9	12437,6	16708,4	9,2	98,8
Qirg`iziston	20239,8	19214,8	1025,0	6,4	5,8 m
Yaponiya	19280,2	17,4	19262,8	6,1	223,5 m
Latviya	9719,0	41,8	9677,3	3,1	19,5 m
Koreya	7981,0	0,0	7981,0	2,5	177,4
Germaniya	6316,2	1489,7	4826,5	2,0	19,7
Ukraina	5446,4	2743,5	2702,9	1,7	122,4
Litva	3912,6	28,1	3884,4	1,2	2,7 m
Hindiston	3070,6	76,7	2993,9	1,0	121,7
Polsha	2956,8	1130,0	1826,7	0,9	122,0
Malayziya	2336,0	0,0	2336,0	0,7	3,3 m
Eron	2025,2	501,1	1524,0	0,6	193,1
Italya	1898,3	207,4	1690,9	0,6	113,6
Turkmaniston	1763,5	391,5	1372,0	0,6	97,2
Avstriya	1673,2	46,6	1626,6	0,5	129,0 m
Argentina	1434,7	0,0	1434,7	0,5	252,0
Belarusiya	1283,1	569,1	714,0	0,4	69,0
Tayvan	1218,8	214,5	1004,3	0,4	6,2 m
Gollandiya	932,6	0,0	932,6	0,3	32,9
BAA	642,4	0,0	642,4	0,2	20,4
Portugaliya	597,2	597,2	0,0	0,2	29,9 m
Pokiston	589,0	117,9	471,1	0,2	12,2

EKSPORT

2019 yil yanvar-aprel oylarida eksport hajmi 102,4 mln.AQSh dollarga (60,0 % ga ko'paygan) teng bo'ldi. eksport tarkibida tovarlarning ulushi 96,7 % ga ega bo'lib, bular asosan boshqa turdagi mahsulotlar (47,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (28,9 %), shuningdek, mashina va asbob-uskunalar (5,7 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Tovar va xizmatlar eksporti tuzilmasi, (foizda)



Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	o`ngan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`ngan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`ngan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	102392,9	160,0	100,0	75902,3	175,1	100,0	26490,7	128,4	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	29632,4	204,0	28,9	26391,6	350,8	34,8	3240,8	46,3	12,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	662,7	318,0	0,6	643,3	1426,4	0,8	19,4	0,0	0,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1220,5	0,0	1,2	1220,5	0,0	1,6	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	350,5	160,2	0,3	331,7	151,6	0,4	18,9	0,0	0,1
Mashina va asbob- uskunalar	5792,3	2451,2	5,7	3046,7	1289,3	4,0	2745,5	0,0	10,4
Xizmatlar	3368,7	109,6	3,3	2683,9	103,0	3,5	684,8	146,4	2,6
Boshqalar	61365,8	134,3	59,9	41584,6	127,1	54,8	19781,3	152,3	74,7

Eksport tarkibi, (foizda)




Xizmatlar eksporti hajmi 3368,7 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,3 % ini tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 9,6 % aga koʻpayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

2019 yil yanvar-aprel oyida jami eksport hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	Yanvar-aprel		o`tgan yilga nisbatan, %
	2018 y.	2019 y.	
Viloyat jami	63984,0	102392,9	160,0
Namangan sh	24141,2	33448,4	138,6
Mingbuloq	1011,1	1390,2	137,5
Kosonsoy	2831,7	7725,7	2,7 m
Namangan	7628,4	10728,5	140,6
Norin	2,7	456,8	168,0 m
Pop	2230,1	3277,7	147,0
To`raqo`rg`on	7277,2	11773,8	161,8
Uychi	3483,3	4353,7	125,0
Uchqo`rg`on	6716,7	10501,8	156,4
Chortoq	103,4	3504,8	33,9 m
Chust	3131,8	5323,4	170,0
Yangiqo`rgon	1776,8	5619,7	3,2 m
Jismoniy shahslar	3649,7	4288,4	117,5

**Viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**




Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Qirg'iziston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 82,1 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Qirg'izistonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan engil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

IMPORT

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 213,3 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 17,5 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (48,7 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (19,3 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (9,5 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tuzilmasi, (foizda)



Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	213314,1	117,5	100,0	47363,0	83,2	100,0	165951,2	133,1	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	20249,2	53,8	9,5	9184,3	37,1	19,4	11064,9	86,2	6,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	41215,2	119,2	19,3	8172,6	148,9	17,3	33042,6	113,6	19,9
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1150,2	190,7	0,5	842,67	0,0	1,8	307,6	238,1	0,2
Qora va rangli metallar	7198,8	67,2	3,4	2626,6	74,8	5,5	4572,2	63,5	2,8
Mashina va asbob-uskunalar	103824,2	145,6	48,7	4952,7	103,9	10,5	98871,5	148,6	59,6
Xizmatlar	427,7	169,2	0,2	16,7	0,0	0,0	411	162,6	0,2
Boshqalar	39248,8	148,0	18,4	21567,4	120,4	45,5	17681,4	205,8	10,7

Import tarkibi, (foizda)




Xizmatlar importi hajmi 427,2 ming. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,2 % ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 69,2 foizga oshdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari xizmatlaridan iborat bo`ldi.

**2019 yil yanvar-aprel oyida jami import hajmi shahar va
tumanlar kesmida**
(ming AQSH dollari)

	yanvar-aprel		o`tgan yilga nisbatan, %
	2018 y.	2019 y.	
Viloyat jami	181570,7	213314,1	117,5
Namangan sh	28095,1	81562,6	2,9 m
Mingbuloq	72,0	562,2	7,8 m
Kosonsoy	3074,5	15562,1	5,1 m
Namangan	19468,9	17255,1	88,6
Norin	879,5	14714,6	16,7 m
Pop	2601,3	7958,3	3,1 m
To'raqo'rg'on	67630,4	12792,1	18,9
Uychi	3107,9	16984,7	5,5 m
Uchqo'rg'on	2180,8	4705,3	2,2 m
Chortoq	1919,6	3203,5	166,9
Chust	1416,5	3574,2	2,5 m
Yangiqo'rg'on	5549,1	4050,8	73,0
Jismoniy shahslar	45575,4	30388,6	66,7

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**



2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatga 54 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Latviya, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 176 499,9 ming. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 82,6 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-84-89**